

Psixologik bilim yuridik soha vakillari uchun ham asosiy jinoiy-huquqiy toifalarning (ayb, motiv, maqsad, jinoyatchining shaxsi va boshqalar) mohiyatini chuqur tushunish uchun ham, ayrim huquqiy masalalarni hal qilish uchun ham - sud ekspertizasini tayinlash uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аминов И. И., Давыдов Н. А. Психология профессиональной деятельности юриста. Учебник. — М.: Проспект. 2020. 280 с.
2. Васильев В. Л. Юридическая психология (для бакалавров). Учебник. — М.: Юстиция. 2018. 608 с.
3. Otamuratov R., Toshbekov H. PSIXOLOGIK XIZMAT SOHASIDAGI MAUMMOLAR VA YECHIMLAR //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 16-22.
4. Otamuratov R., Muhammadiyev A. YATROGENIYA KELIB CHIQISH TARIXI VA ILK QARASHLAR //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 3-9.
5. Отамуратов Р. Уникальность концепции эмоционального интеллекта в семейных отношениях / Р. Отамуратов, С. Отамуратова, Д. Розиккулова. – Информатика и инженерные технологии. – 2023. – № 1. – С. 423-8.
6. Отамуратова, С., & Отамуратов, Р. (2023). Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarining psixologik tahlili . Информатика и инженерные технологии, 1(2), 323–328. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25284>
7. Отамуратов, Р. У. Психологические особенности эмоционального интеллекта человека в интернет-среде (на примере молодёжь) / Р. У. Отамуратов, П. Н. Устин // Мир науки. Педагогика и психология. — 2023. — Т. 11. — No 5. — URL: <https://mir-nauki.com/PDF/15PSMN523.pdf>
8. Otamuratov Rustam Uskanovich, Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna, Ochilova Muxlisa., BuxDU “Psixologiya” № 2, 2023 “PSIXOLOGIYA” ILMIY JURNALI., 61-bet.
9. Uskanovich O. R. et al. OILADA AYOLNING PSIXOLOGIK SAVODXONLIGINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 25. – №. 4. – С. 72-77.

AGRAR SOHADA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA UNI SOLIQQA TORTISH XUSUSIYATLARI

Otanazarova Xosila Jasurbek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabasi, O‘zbekiston

Shukurov Ilhom Safarboyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali kata o‘qituvchi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqola agrar sohada suv resurslaridan foydalanish ahamiyati va uni soliqqa tortish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bugungi suv resurslarining tanqisligi, suvdan foydalanishni tartibga solish, ayrim rivojlangan mamlakatlarda suvdan foydalanish va uni soliqqa tortish, shuningdek sohani rivjlantirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: suv, suv resurslari, soliq, agrar soha, qishloq xo‘jaligi.

Global isish iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, shu jumladan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tizimlarini suv bilan ta‘minlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Yerning ko‘plab mintaqalarida yog‘ingarchilik miqdori va muntazamligi o‘zgargan. Suv resurslarining yetishmasligi tobora keskinlashmoqda va iqtisodiyotning ushbu sohasida qattiq raqobat kuchaymoqda. 2019- yilda 153 mamlakatdan o‘n mingdan ortiq olimlar “Bioscience” jurnalida jamoaviy bayonotni e‘lon qilishdi [1], unda ular iqlim favqulodda holatini e‘lon qilishdi va jahon kuchlari rahbarlarini shoshilinch choralar ko‘rishga chaqirishdi.

O'zbekiston – 2030 strategiyasida agrar sohani rivojlantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida qator maqsad va vazifalar belgilangan [2]. Bugungi global iqlim o'zgarishi sharoitida agrar tarmoqda Strategiyada belgilanganidek, faqatgina irrigatsiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy qilish orqaligina ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Suv resurslaridan samarali foydalanish yo'li barqaror agrar oziq-ovqat tizimlarini yaratish orqali amalga oshiriladi, chunki dunyodagi chuchuk suvning 72 foizi qishloq xo'jaligida, 16 foizi sanoat ishlab chiqarishida, 12 foizi maishiy xizmat ko'rsatish sohasida ishlatiladi. Dunyo aholisining, taxminan, uchdan bir qismi (taxminan, 2,3 mlrd kishi) suv yetishmaydigan mamlakatlarda yashaydi.

Chet el tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, cheklangan tabiiy resurslarni iste'mol qilishni tartibga solishning eng keng tarqalgan iqtisodiy vositasi soliqlar va suv uchun to'lovlardir. Shunday qilib, suvdan foydalanish tushumlari o'rmondan foydalanish, ov qilish va baliq ovlash, foydali qazilmalarni qazib olish, tuproq ishlariga soliqlar (masalan, qum va shag'aldan foydalanish) uchun soliqlar va yig'imlar bilan bir qatorda daromadlarning umumiy toifasiga kiradi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar va majburiy to'lovlar hamma joyda mavjud. Ular soliqlar, yig'imlar, foydalanganlik uchun to'lovlar, shuningdek suv manbalarining ifloslanishi uchun to'lovlar, suv qonunchiligini buzganlik uchun jarimalar, sug'urta mukofotlari (ekologik javobgarlikni sug'urtalashda) va boshqa to'lovlar shaklida taqdim etilishi mumkin. Shu bilan birga, soliqlar va maxsus to'lovlar o'rtasidagi farq birinchisi shartsiz majburiy to'lov ekanligiga asoslanadi, ikkinchisi, qoida tariqasida, xizmat ko'rsatish yoki zararni qoplash uchun to'lov shaklida harakat qiladi.

Mamlakatdagi daromad darajasiga qarab, maqsad nuqtai-nazaridan suvdan foydalanish dinamikasi ma'lum ko'rinishlarda aks ettirildi. Shunday qilib, kam daromadli mamlakatlarda tahlil qilingan davrda o'rtacha qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan foydalanish umumiy suv olishning 68% dan ortig'ini, o'rtacha daromadli mamlakatlarda – taxminan 52% va yuqori daromadli mamlakatlarda – taxminan 31% ni tashkil qiladi.

Suv iste'moliga eng katta soliq yuki Daniyada sodir bo'ladi. Ushbu mamlakatning soliq sohasida ikkita soliq mavjud – iste'mol uchun (kub metr suv uchun 0,83 yevro) va suv resurslarini muhofaza qilishga ko'maklashish uchun (kub metr uchun 0,03 yevro). Bundan tashqari, barcha subyektlar suv iste'moli uchun 0,85 yevro miqdorida haq to'laydilar.

Daniya bilan bir qatorda, Isroilda suv qazib olish uchun yuqori soliqlar qo'llaniladi, bu yerda stavkalar yilning vaqtiga va iste'mol darajasiga qarab belgilanadi. Ushbu mamlakatda soliq yuki qishda boshqa fasllarga qaraganda yuqori (taxminan 0,7 yevro) va yilning qolgan qismida ular iste'mol hajmiga bog'liq. Belgilangan iste'mol me'yoridan oshib ketganda, soliq 5 baravar ko'payadi (0,09 dan 0,49 yevrogacha). Qurg'oqchilik davrida me'yordan ortiq suv iste'mol qilish uchun har bir kubometr uchun taxminan 4,70 yevro miqdorida soliq olinadi.

Estoniyada korxonalar tomonidan suv iste'moli hajmi (1 kub metr uchun 0,41–2,2 yevro), aholiga (0,41–2,2 yevro) soliqqa tortish uchun asos hisoblanadi. Bundan tashqari, artezian suvini qazib olish uchun to'lov olinadi, bu yerda stavka suv havzasi turiga qarab farqlanadi va yer usti manbalaridan suv olish maqsad va foydalanish yo'nalishiga qarab soliqqa tortiladi. Artezian suvi uchun to'lov stavkalari kub metr uchun 0,16 yevrodan 0,016 yevrogacha o'zgarishi mumkin.

Finlyandiyada suv iste'molchilari suv iste'moli uchun ikki darajali soliq to'laydilar: belgilangan miqdor va suv iste'molidan tashqari hajmga bog'liq bo'lgan miqdor (o'rtacha - taxminan 1,15 yevro). Shunga o'xshash tizim Italiyada ham amal qiladi, bu yerda suv uchun to'lov foydalanish hajmiga bog'liq va uning o'sishini hisobga olgan holda asta-sekin o'sib boradi.

Germaniyada suv solig'i manbaga (yer osti yoki yer usti) va suvdan foydalanish maqsadiga bog'liq. Stavkalar mahalliy munitsipalitet tomonidan federal Shtatlar darajasida belgilanadi va tartiblanadi (kub metr uchun 0,31 dan 0,0003 yevrogacha). Shuni ham ta'kidlash

kerakki, ma'lum hududlar uchun tijorat yoki qishloq xo'jaligi maqsadlarida yer usti suvlarini iste'mol qilish uchun belgilangan to'lov mavjud.

Polshada suv olish solig'ini hisoblashning eng murakkab tizimlaridan biri hisoblanadi, bu yerda to'lovlar ko'plab parametrlarga, ya'ni manbaga, suv sifatiga, hududlarga, iste'mol maqsadiga qarab belgilanadi va farqlanadi.

Rossiyada suv solig'i o'rnatilgan. Soliq solish obyekti suv havzalaridan suv olishdir. Stavkalarni farqlash manbaga (yer osti, yer usti) va daryo havzasiga, ko'lga qarab belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanishda nafaqat bugungi, balki kelajak avlod haqida ham qayg'urishimiz zarur. 80 foizdan ortiq suv resurslari qo'shni davlatlardan kirib keladi. Shundan kelib chiqib, qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi ob'ektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol ikki taraflama manfaatli hamkorlikni davom ettirish zarur.

Suv resurslaridan foydalanishda nafaqat bugungi, balki kelajak avlod haqida ham qayg'urishimiz zarur. 80 foizdan ortiq suv resurslari qo'shni davlatlardan kirib keladi. Shundan kelib chiqib, qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi ob'ektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol ikki taraflama manfaatli hamkorlikni davom ettirish zarur.

Shuningdek, suv xo'jaligi sohasiga oid barcha normativ-huquqiy hujjatlarni ham qayta ko'rib chiqishimiz, kerak bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksini qabul qilishimiz dolzarb vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Chunki suv tanqisligi muammolari global darajaga chiqayotgan bir paytda avvalo, undan samarali foydalanishda barcha huquqiy asoslar yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://ores.su/ru/journals/bioscience/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 2023 yil 11 sentabr. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

OILADA MULOQOTNING SHAKLLANISHI

Qarshiboyev Sardor Alisher o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Xolmatova Sevara Inomjon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali

taa@jbnuu.uz

Annotatsiya; maqolada bolaning ijtimoiy rivojlanishi, ma'naviy tarbiyasi, shuningdek, tarbiya jarayonida ota-onalarning o'z farzandlariga nisbatan qo'llayotgan tarbiya usullari, bolalar axloqini shakllantirishdagi ular bilan aloqalarning xususiyatlariga to'xtalgan.

Kalit so'zlar; bola, ma'naviy tarbiya, ota-ona, kattalar, fe'l-atvor chiziqlari, munosabat

O'zbekiston Prezidenti SH. M. Mirziyoevning "Oliy Majlisga qilgan murojaatnoma"sida mamlakatni rivojlangan mamlakatga aylantirish uchun nafaqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya, balki, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash talab etiladi. Buning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha — ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilish, butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerakligini, ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'lishini misollar orqali bayon etdi. Shuningdek, Prezidentimiz sharq donishmandlarining quyidagi fikrlarini izohlab o'tdilar, "Eng katta boylik — bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir!"

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerakligini ta'kidlab o'tdilar. Bunday shaxslar esa albatta oilada voyaga yetadilar. Tarbiya jarayonining markaziy figurasi bola va uning shaxsi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bola umuminsoniy ma'naviy